



IS'HOQXON IBRAT G'AZALLARIDA MA'NO VA BADIYYAT TAHLILI.

Nezomjonova Umida O'tkirjon qizi.

Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari
institutining, Til va tarjima fakultetining XTA-IU-24 guruh talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15083992>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 15-Mart 2025 yil
Ma'qullandi: 20-Mart 2025 yil
Nashr qilindi: 25-Mart 2025 yil

KEYWORDS

*adabiy-estetik, san'at turlari,
she'riy obrazlar.*

ABSTRACT

*Ushbu maqolada o'zbek adabiyoti va madaniyatining
yirik namoyandalaridan biri bo'lib, nafaqat shoir, balki
olim, tarjimon va ma'rifatparvar sifatida ham tanilgan
Is'hoqxon to'ra Ibratning g'azallaridan biri bo'lmish "
Chaman ichra" radifli g'azalini adabiy-estetik jihatlari
tahlil qilinishi orqali shoirning poetik mahorati, badiiy
san'atlar qo'llanilishi va she'riy obrazlar tizimi
o'rganilgan.*

Millatning millatligini belgilovchi bosh mezon uning tili va adabiyot ekani barchamizga ayondir. O'z tili va adabiyotidan mahrum bo'lgan millat tanazzulga yuz tutadi. Shuni aytib o'tish joizki, O'zbek millatining eng katta baxti – ilm olish va ulashishda hech bir mehnat-u mashaqqatdan chekinmagan buyuk shoir, mutafakkir va adiblarining ko'pligidir. Is'hoqxon to'ra Ibrat XIX asr oxiri va XX asr boshlarida jadidchilik harakatlari bilan o'zbek adabiyotining ana shunday benazir shaxslardan biri hisoblanadi, ayniqsa mustamlakachilik paytida yoshlar o'rtasida G'arb tilini targ'ib qilganligi taqsimga sazovordir. Bir necha tillarda ijod qilib, kitoblar yozgan, shu bilan birga o'z asarlarida nafaqat ma'rifatparvarlik va milliy uyg'onish g'oyalarini ilgari surgan, balki ijodida g'azal janri ham alohida o'rin tutib, unda muhabbat, sadoqat, hayot falsafasi kabi g'oyalarini yuksak badiiy mahorat bilan ifodalagan. Misol uchun "Chaman ichra" radifli g'azalida ham bulbul va gul obrazlari orqali oshiqning sadoqati, fidoyiligi va muhabbati tasvirlanadi. Huddi Alisher Navoiyning g'azalida oshiq (bulbul) sevgilisi (gul) yo'lida jon fido qilishga tayyor ekanligi keltirilgani kabi ifodalagan. Shuningdek, ushbu g'azallarda insoniy muhabbatning ilohiy ishq bilan uyg'unlashganligiga ham guvoh bo'lishimiz mumkin.

Quyidagi baytlar orqali bularga yanada ko'proq guvoh bo'lamiz.

O'shal bulbul qilar afg'on sahar vaqti chaman ichra,

Qo'nar gul deb tikan uzra sahar vaqti chaman ichra.

Bizga ma'lumki, bulbul - oshiq, gul esa ma'shuqani ifodalaydi. Bulbulning afg'on qilishi – oshiqning ma'shuqaga yetisha olmasligi sababli nola chekmoqda deb hissoblasak, sahar vaqti – muhabbat olovida yonayotgan oshiq uchun eng nozik va his-tuyg'uga boy lahzadir. Chunki sahar vaqti inson qalbi eng go'zal hissiyotlar bilan to'lib-toshishini anglatadi.

Tikan ustiga qo'nish oraqali esa oshiqning muhabbat yo'lidagi mashaqqatlarga chidashga tayyorligini va bu ishq yo'lida ko'p qiyinchiliklar borligini anglatadi. Demak, Oshiq hissiyotlar bilan to'lib-toshgan payti nola qilib, muhabbati yo'lida barcha qiyinchilik va

mashaqqatlarga tayyorligini aytmoqda . Bulbul oshiqqa, gul esa ma'shuqaga o'xshash orqali Istiora she'riy san'atini hosil qilmoqda.

Istiora (arabchadan „qarzga olish“) yoki metafora (yunonchadan „ko'chirish“) — asarlarda so'zni o'z ma'nosidan boshqa bir ma'noda, ya'ni majoziy ma'noda qo'llash san'ati. Bu san'at so'z ma'nolari ko'chishining bir turi bo'lib, u narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanadi.

Gul va tikan so'zlari orqali shoir tazod she'riy san'atini qo'llamoqda.

Tazod, mutobiqa, mutazod (arab. — zidlash) — badiiy tasvirning ta'sirchan va keng qo'llanadigan vositalaridan. Nasrda ham, nazmda ham uchraydi. O'zaro zid tushunchalarni ifodalovchi so'z yoki iboralarni ishlatishda ko'zga tashlanadi

Qilar bag'rini bulbul qon , tikan uzra beray deb jon ,

Bo'lur gul zavqidin qurbon sahar vaqti chaman ichra.

Ikkinchi baytda " Qilar bag'rini bulbul qon" – Bulbul (oshik) muhabbat iztirobi bilan yuragi qon yutadi.

"Tikan uzra beray deb jon" ya'ni Oshiq o'z sevgisi yo'lida jonini ham qurbon qilishga tayyor. Tikan og'riq va sinovlar ramzi deb hisoblasak, bulbulning tikan ustida iztirob chekishi fidoyilikni anglatadi.

Bo'lur gul zavqidin qurbon" jumlasida esa bulbul, ya'ni oshiq, gul (ma'shuqa) huzuridan shunchalik mast bo'ladiki, o'zini butunlay sevgiga fido qiladi. Bu baytdan o'z sevgisi yo'lida jonini ham qurbon qilishga tayyor bo'lgan oshiq muhabbat iztirobi bilan qon yutadi. Ma'shuqani oldida shunchalik zavqlanganidan hissiyotga to'lib-toshgan payti o'zini sevgiga fido qilishga tayyor ekanligiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Ushbu baytda tashbeh va tazod san'atlaridan foydalanilgan.

Tashbih (arab. — o'xshatish) — she'riy san'atning biri, so'zlarda ifodalangan ikki yoki undan ortiq narsa, hodisa yoki xususiyatni ular o'rtasida mavjud bo'lgan biror o'xshashlik, umumiylik nuqtai nazaridan qiyoslash. Bu baytda bulbulning bag'ridan qon oqishi oshiqning yurak iztirobiga o'xshatilgan qilingan.

Jon bermoq va qurbon so'zlari tazod she'riy san'atini hosil qilishga sabab bo'lgan.

O'shal bulbul bo'lur dog'lar, chamanni gasht etib chorlar,

Qizil gulni tilab yig'lar sahar vaqti chaman ichra .

Ushbu baytda Is'hoqxon to'ra Ibrat oshiq muhabbat olovida yonib, sevgisi yo'lida tinmay sarson-sargardon yurishi ya'ni ma'shuqasiga yetishish uchun harakatlar qilishi hamda uning orzusi iztirobga tushishi va uni qo'lga kiritish uchun sahar payti nolalar chekishini juda chiroyli jumlar orqali ifodalagan.

Boshqa tomondan qarasak, oshiqning haqiqiy mahbubasi Allah , unga yetishish yo'lidagi mashaqqatlar va ilohiy ishqqa yetishish ishtiyoqi huddi Navoiy , Mashrab va Fuzuliy she'rlariga tasvirlangan ishq tushunchasiga o'shash tarzda ifodalangan.

Bu baytda gul va bulbul so'zlari orqali Istiora she'riy san'atidan foydalanilgan .

Chiqar bulbulni afg'oni , chaman ichra oqib qoni,

Tasadduq gul uchun joni sahar vaqti chaman ichra.

Bu misralarga kelib oshiqning nolasi yanada kuchayadi . Shu qadar azob chekkanligidan hatto uning qonlari chaman ichra oqadi.Oshiq bu muhabbat yo'lida o'zini butunlay bag'ishlaydi degan ma'noda kelmoqda . Ushbu baytda ham istiora hamda nola qilishi,qon oqishi va axiri jon berishi tadrij san'atini hosil qilgan

Tadrij (arabcha ketma-ket peshma-pesh) san'atida tasvirga olingan obyekt darajama-daraja rivojlantirib boriladi ; bu rivojlanish jarayoni o'xshatish vositasi bilan ketma-ket o'sib boradi.

Muhabbat birla mast erdi, ani yo'lida jon berdi,
Qizil guldin xabar so'rdi sahar vaqti chaman ichra.

Muhabbat birla mast erdi – Bu jumlada oshiq sevgi ta'sirida hushidan ketgan, go'yoki u muhabbat sharobidan ichib mast bo'lganga o'xshatilgan.

Ani yo'lida jon berdi – Oshiq o'z sevgisi yo'lida jonini fido qilibdi ya'ni u uchun muhabbat hayotidan ko'ra unga ko'proq azizroq ekanli chiroyli tarzda ifodalanyapti. Keyingi misrada "Qizil guldin xabar so'rdi" – bulbul(oshiq) guldin (ma'shuqasidan) hol-ahvol so'raydi. Bu baytdan quydagicha xulosa chiqarishimiz mumkin : sahar payti ma'shuqasidan habar olgan oshiq muhabbat sharobidan mast bo'lib mahbubasi ya'ni o'z sevgisi uchun jonini fido qildi.

Muyassar bo'lsa ul jonon, ato qilsa o'shal subhon,
Yo'lida jon qilay qurbon, sahar vaqti chaman ichra.

Is'hoqxon Ibrat bu baytni "agar Alloh mashuqani oshiq uchun nasib etsa ya'ni unga yetishish imkonini berilib , istagi amalga oshgan paytda u o'z jonini sevgi yo'lida qurbon qilishga tayyor " - shunday mazmunda tasvirlamoqda.

Bu baytda

Ul jonon - istiora san'atini , muyassar bo'lmoq va qurbon bo'lmoq tazod she'riy san'atini hosil qilinyapti.

Ibrati bexabar bo'lma yana g'aflat bilan o'lma,
Gunohi beaded qilma, sahar vaqti chaman ichra.

So'ngi misralarda shoir : Ibrati bexabar bo'lma deb Shoir o'ziga yoki butun bir jamiyatga murojaat qilib , hayotning ma'nosiz o'tib ketishiga yo'l qo'ymaslik kerakligini va berilgan umrdan unumli foydalanish kerakligini ta'kidlamogda. "Yana g'aflat bilan o'lma" – Insonning maqsadsiz, beparvo hayot kechirishi tanqid qilinmogda. Bu dunyoda anglash, o'rganish va xatosini tuzatish uchun imkoniyat bor, lekin o'lim kelgach, kech bo'ladi u paytgacha qilib olish kerakligiga urg'u qaratilyapti.

"Gunohi beaded qilma" – Cheksiz (beaded) gunoh qilishdan ogohlantiryapti ya'ni o'lim kelguncha maqsadlariga erishish bilan birga , yaxshi amallarni ham qilib ol demoqchi. Ya'ni Ibrat o'zini va jamiyatni hayotda ma'nosiz, hech qanday maqsad va yaxshi amallarsiz o'tib ketmaslikka chorlamogda.

Is'hoqxon To'ra Ibratning hayoti, ijodi va amalga oshirgan ishlari biz uchun ibratlidir. Uning "Sahar vaqti chaman ichra" radifli g'azali insoniy muhabbat va ilohiy ishqning o'zaro bog'liqligini, fidoyilik va sadoqatni aks ettiradi. Ayniqsa, g'azalning so'nggi baytlarida insonni uyg'oqlikka, hayotining mohiyatini anglashga chorlovchi fikrlar ilgari suriladi.

Ziyo bilan yuraman desang dunyoda,

Ilm ol hunar o'rgan, qolma piyoda. Ushbu hikmatli so'zi ham uning yaqqol misoldir

Shoir mazkur g'azalida istiora, tazod kabi badiiy san'at vositalaridan mahorat bilan foydalanib, tasvirni yanada ta'sirchan va ifodali qilgan. Natijada, bu asar nafaqat badiiy go'zallik namunasi, balki insonni tafakkur qilishga undaydigan falsafiy asar sifatida ham e'tiborga loyiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'azallar, ilmiy va ma'rifiy maqolalar, tarixiy asarlar [Matn] / Qayta nashr. Ishoqxon Ibrat Nashrga tayyorlovchilar: Ulug'bek Dolimov, Nurboy Jabborov. - Toshkent: «Zabarjad Media», 2024. – 208 b.
2. G'aroyib us-sig'ar 9-g'azal
3. Jadidlar. Is'hoqxon to'ra Ibrat [Matn]: risola./U.Dolimov. Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. 180 b.
4. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua. Qayta ishlangan 4-nashri / Q. Yo'ldoshev, B. Qosimov, V. Qodirov, J. Yo'l doshbekov. – T.: «Sharq», 2017. – 368 b.

